3. Internet manzili: https://igtipc.org/ru/news-res/738-ob-jomy-zeljonogo-finansirovaniya-vyrosli-na-50-i-prevysili-250-mlrd-v-2019-g
4. UNEP’s Green Economy Initiative (GEI). URL: https://www.unep.org/greeneconomy (accessed 02.10.2019)
5. Кенжаев И. Э., Балтабаев М. Т., Абдурахманов Ш. Ш. Иностранные Инвестиции В Малый Бизнес //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 159-164.
6. Siddikov A. M., Baltaboev M. T., Abduraxmonov S. S. Formation and Development of Small Business in Uzbekistan //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 76-80.
7. Abdulxakimov Z., Abduraxmonov S. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari. – 2024.
8. Уринов Бахром Жамолиддинович. (2022). ВЛИЯНИЕ ИНТЕГРАЦИИ НА КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ. https://doi.org/10.5281/zenodo.6553514
9. Abduraxmonov S. S. O ‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 22. – С. 4-16.

“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH MILLIY IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING YANGI DAVRI

G’aniyev M.X.
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
“iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “yashil iqtisodiyot” ning zarurligi, omillari va mavjud imkoniyatlari bo‘lgan quyosh va shamol energiyasi resurslari tahlil qilingan. O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonini moliyalashtirishning asosiy yo‘nalishlari, “yashil energetika”ni istiqbolda barqaror rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *“Yashil iqtisodiyot”, barqaror rivojlantirish, davlat iqtisodiy siyosati, uglevodorod energiyasi, “yashil energetika”ga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya, «yashil» iqtisodiy infratuzilma, “yashil» obligatsiyalar”.*

Аннотации. *В данной статье анализируются потребность, факторы и доступные возможности использования ресурсов солнечной и ветровой энергии. Выделены основные направления финансирования процесса перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане, механизмы устойчивого развития «зеленой энергетики» в будущем.*

Ключевые слова. *«Зеленая экономика», устойчивое развитие, государственная экономическая политика, углеводородная энергетика, переход к «зеленой энергетике», возобновляемая энергетика, «зеленая» экономическая инфраструктура, «зеленые» облигации.*

Abstract. *This article analyzes the need, factors and available opportunities of solar and wind energy resources. The main directions of financing the process of transition to "green economy" in Uzbekistan, the mechanisms of sustainable development of "green energy" in the future are highlighted.*

Keywords. *"Green economy", sustainable development, state economic policy, hydrocarbon energy, transition to "green energy", renewable energy, "green" economic infrastructure, "green" bonds.*

Kirish

Mamlakatimizda iqtisodiyotni 2030 yil va undan keyingi davrlarda “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Boisi, bir tomondan, fan-texnika borasida erishilayotgan yutuqlar ta’sirida iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasining keskin o‘sishi muntazam ravishda atrof-muhitga bo‘lgan yukning ortishiga, ikkinchidan esa talabning ortishi bilan yer osti va yer usti resurslarini qisqarishiga olib kelmoqda. Ayrim mamlakatlarda esa resurslar tanqisligi jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Iqtisodiyotdagi mavjud real talabni qondirish va istiqboldagi ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktyabrda tasdiqlangan “2019-2030 yillarda O’zbekiston Respublikasini “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi” muhim dasturi amal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Asosiy qism. “Energetika tarmog‘i samaradorligini oshirish butun mintaqamiz uchun dolzarbdir. Bu borada mamlakatimizda 28 ta loyiha ustida ishlar davom ettirilmoqda. Biz 2030 yilgacha 20 gigavattdan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini yaratish va energetika balansida uning ulushini 40 foizga yetkazishni maqsad qilganmiz. O’tgan yilning o‘zida 1,4 gigavatt quvvatdagi yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini strategik sheriklarimiz bo‘lgan “Masdar”, “Gezhouba”, “China Energy” kompaniyalari bilan ishga tushirdik. Shuningdek, “ACWA Power” bilan “yashil vodorod” ishlab chiqarish loyihasini ham boshlab yubordik. Eng e’tiborli jihati-ushbu muhim loyihalar davlat-xususiy sherikchilik tamoyili asosida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilmoqda” [1].

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo‘lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010 yil darajasidan o‘n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta’minotidan foydalanish ta’minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg‘i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi[2].

O’zbekiston uglevodorod energiyasi – neft, gaz, ko‘mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo‘qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablag‘ni talab qiladi. Buning o‘rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali hisoblangan “yashil energetika”ga o‘tish ming chandon afzaldir. Milliy iqtisodiyotda energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 24-maqsadida alohida belgilanib, “...iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, 2026 yilga kelib elektr energiya ishlab chiqarish ko‘rsatkichini qo‘shimcha 30 milliard kvt. soatga yetkazish hamda 2026 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gaz tejash” [3] vazifasi belgilangan. Bu kabi vazifalar va o‘sib borayotgan ehtiyojlarni qondirishda mamlakatimizda tabiiy holda katta miqdorda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi kabi energiya manbalari mavjud. Ushbu manbalar tarkibida


quyosh va shamol energiyasi hududimizda katta istiqbolga ega bo‘lib, “yashil investitsiyalar”ni jalb qilishga imkon beradi. Shamol elektr generatorlari faqat shamol tezligi 5-6 m.s dan baland bo‘lganida ishlab, O‘zbekistonning shamol potensiali yuqori bo‘lgan hududlarida yiliga o‘rtacha 3200-4300 soat davomida energiya beradi (yilning davomiyligi 8760 soat).

O‘zbekistonning shamol resurslarining energiya imkoniyatlarini, tarqalishini va quvvatini o‘rganish bo‘yicha Germaniyaning Geo-Net va Intec Sora kompaniyalari “O‘zbek-energo” AJ bilan hamkorlikda tadqiqot ishlari olib borishdi va Geo-Net kompaniyasi tomonidan O‘zbekistonning shamol resurslari xaritasi tuzildi. Xarita yer yuzasidan 84 metr balandlikdagi ma’lumotlarga asoslanadi. Ushbu xaritadagi ma’lumotlar bo‘yicha shamol tezligi 5,0 m/sek dan 6,5 m/sek va undan katta bo‘lgan hududlar mamlakatimiz umumiy maydonining 70-75 foizini, shamol tezligi 3,0 m/sek dan 5,0 m/sek gacha bo‘lgan hududlar 20-25 foizni va shamol tezligi 2,5 m/sek dan kam bo‘lgan hududlar 5 foizga yaqin hududlarni egallaydi. Ushbu raqamlar respublikaning 95 foiz hududida shamol energiyasidan foydalanish mumkinligini bildiradi[4].

Quyosh fotoyelektr stansiyalari faqat kunduzgi, bulutsiz va kam bulut bo‘lgan holatda ishlab, O‘zbekistonning quyosh potensiali yuqori bo‘lgan hududlarida yiliga o‘rtacha 1500-2200 soat davomida energiya beradi. Xalqaro moliyaviy institutlarning hisob-kitobiga qaraganda, respublikada muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilg‘i ekvivalentiga teng. Bu real ehtiyojimizdan uch karra ko‘p. Boz ustiga, “yashil energetika” sohasidagi loyihalarni amalga oshirish O‘zbekistonda yaqin o‘n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga ko‘paytirish imkonini beradi. Bu iqtisodiyot uchun mislsiz foydadir.

Bugungi kunda ekologik muvozanatni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi masalalar Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari uchun ham dolzarbdir. Tabiatda siyosiy chegaralar bo‘lmaydi. Aytaylik, “yashil energetika” tizimi yoki atrof muhitga ziyon yetkazmaydigan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishdan nafaqat O‘zbekiston, qo‘shnilar ham yutadi. Shu nuqtai nazardan umummanfaatli strategik rejalarga tayanib, birgalikda harakat qilganimiz ma’qul. Biroq “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish o‘tmaslik har qaysi respublikaning mustaqil ishi hisoblanadi. O‘zbekistonda 2027 yilga borib, 15,4 ming megavatt quvvatga ega 24 ta elektr stansiya (11 ta issiqlik elektr stansiyasi va 13 ta gidro elektr stansiyasi) ishga tushiriladi va natijada, aholining energiyaga ehtiyoji to‘liq qondiriladi. Tiklanadigan energetikaning rivojlanish ko‘rsatkichlariga erishish maqsadida 2020-2030 yillarda 3 GVt shamol va 5 GVt quyosh elektr stansiyalarini qurish ko‘zda tutilgan rasm.

[4] https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/3622/https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/3622/



5

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda O’zbekistonda iste’molchilarga elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun 14 trillion so‘mdan ortiq subsidiya berilmoqda. Mazkur raqam juda katta bo‘lib, uni sohani modernizatsiya qilishga sarflash orqali aholining elektr energiyasi va tabiiy gazga bo‘lgan ehtiyojini to‘laqonli qondirish mumkin. Ammo hozirgi paytda barcha mablag‘ tizimni modernizatsiya qilish o‘rniga aholini subsidiyalash uchun ajratilmoqda. Buning natijasida esa anomal sovuq va jazirama issiq vaqtda aholini energiya resurslari bilan to‘laqonli ta’minlashning imkoni bo‘lmayapti. Tarmoqqa bozor mexanizmlarining joriy etilishi esa vaziyatni tubdan o‘zgartiradi. Avval subsidiya uchun ajratilgan mablag‘lar endi tizimni yangilashga ishlatiladi.

Maqsad va vazifalar. Mamlakatimizda 2024 yil 1 yanvar holatiga elektr energiyasi jami yuqori kuchlanishli 84 ta podstansiya va 11,7 ming kilometr elektr uzatish tarmoqlari hamda past kuchlanishli 1 ming 789 ta podstansiya, 274,8 ming kilometr elektr uzatish tarmoqlari hamda 94 mingga yaqin transformatorlar yetkazib berildi. Shundan 125 ming kilometr uzunlikdagi elektr uzatish tarmoqlari, 912 ta podstansiya va 33 mingdan ortiq transformatorlar 40 yildan ziyod ekspluatatsiya qilib kelinyapti. Shuningdek, 2027 yilga borib, 15,4 ming megavatt yangi ishlab chiqarish quvvatlarini hamda 24 ta elektr stansiyasini (11 ta issiqlik elektr stansiyasi va 13 ta gidroyelektr stansiyasi) ishga tushirish rejalashtirilgan. Shunda bu bor ehtiyojni qondirishga yetadi. Ushbu tarmoqlarni to‘liq yangilash va qurish maqsadida kelgusi 5 yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan o‘ta muhim vazifalar turibdi. Bular:

5,8 ming kilometr magistral elektr uzatish tarmoqlari, 36 ta podstansiya va jami 1 483,8 megavatt quvvatli energiya saqlovchi (batareya) qurilmalarini qurish (dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, bunga 1,5 milliard dollar mablag‘ talab etiladi);

56,3 ming kilometr taqsimlash elektr uzatish tarmoqlari hamda 15,8 mingta transformator punktini yangilash (bunga 700 million dollar talab etiladi).

Ammo bularning barchasini amalga oshirish uchun mablag‘ zarur. Yangi tariflarga o‘tilishi har yili narxni subsidiyalashga ajratilayotgan katta mablag‘larni sohaga yo‘naltirib, mazkur ishlarni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Albatta, elektr energiyasi va gaz narxlarini shakllantirish mexanizmlarini liberallashtirish vaqti allaqachon yetib kelgan. Yangi tarif tizimiga o‘tish, avvalo, davlat budjetidan narxni ushlab turishga yo‘naltirilayotgan 14 trillion so‘mdan ziyod subsidiya mablag‘larining bo‘shashiga olib keladi. Ushbu mablag‘larni esa 30, 40 yillar, ba’zi joylarda 50 yildan buyon ishlatilib kelinayotgan va eskirgan infratuzilmani modernizatsiyalash hamda yangilashga jalb qilish imkoni paydo bo‘ladi. Ekspertlar fikriga ko‘ra, 2025 yilga qadar O’zbekistonda muqobil energiya manbai 12,7 foizdan 19,7 foizga yetishi kerak. Muqobil energiya tarkibida quyosh energiyasi ulushi 2,3 foizga, shamol energiyasi ulushi esa 1,6 foizga yetadi. Shuningdek, ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan energiya hisobidan har yili 9,79 mln. tonna shartli yonilg‘i miqdorida energiya tejash kutilmoqda[5].

Biroq energiyadan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilmas ekan, tizim moddiy-texnika bazasini yangilashga qanchalar e’tibor qaratilmasin, energiya manbalarini ishlab chiqarish nechog‘li ko‘paytirilmasin, ortib borayotgan talabni ta’minlash mushkul vazifa bo‘lib qolaveradi. Shu bois narxlarni erkinlashtirish siyosati kelgusida energiya sarfi miqdori ustidan fuqarolarning individual nazorati kuchayishiga, loqayd va samarasiz foydalanishga chek qo‘yishga, tejamkorlikka olib kelishi bilan ham ahamiyatlidir[6].

Natija va takliflar. O’zbekistonda 2030 yilgacha tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko‘paytirishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlar muhim o‘rin tutadi:

1. «yashil» iqtisodiy infratuzilmaga katta miqdordagi davlat kapitalini yo‘naltirish — davlat kapital mablag‘larini bosqichma-bosqich «yashil» iqtisodiyot infratuzilmasiga yo‘naltirish, shuningdek, infratuzilmaga bo‘lgan ehtiyojlarni va moliyalashtirishdagi bo‘shliqlarni aniqlash;

2. «jigarrang» iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar va subsidiyalardan voz kechish — qazilma yoqilg‘i energiyasini bevosita va bilvosita qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat subsidiyalaridan voz kechish;

3. «yashil» texnologiyalarga va infratuzilmaga investitsiya kiritish orqali «yashil» ish o‘rinlarini yaratishni rag‘batlantirish. Atrof-muhit ifloslanishi uchun belgilangan to‘lovlar tizimini xususiy sektor uchun qulayroq qilish nuqta nazaridan qayta ko‘rib chiqish va shu bilan birga «yashil» texnologiyalarni joriy etish uchun ko‘proq rag‘batlantirish choralarini belgilash. Ifloslanishni kamaytiruvchi texnologiyalarga investitsiyalarni kiritishni yanada rag‘batlantirish maqsadida ifloslanish uchun belgilangan yig‘im stavkasini oshirish va ifloslantiruvchi moddalar ro‘yxatini kengaytirish orqali atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun yig‘im tizimini takomillashtirish;

4. «ifloslantiruvchi — to‘laydi» mexanizmini takomillashtirish orqali «yashil» texnologiyalarga investitsiyalarni rag‘batlantirish. Soliqlar va davlat xarajatlarining «yashil» iqtisodiyotga muvofiqligi va ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlarni baholash va oshkor qilish uchun «yashil» budjet metodologiyasini joriy etish — «yashil» ustuvor yo‘nalishlarga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan soliqlar va davlat xarajatlari ulushini baholash uchun «yashil» budjet metodologiyasini joriy etish;

5. «Yashil» obligatsiyalar orqali «yashil» infratuzilmaga xususiy kapitalni jalb qilish — «yashil» moliyalashtirishni yanada kengroq targ‘ib qilish uchun rag‘batlantirish va arxitektura

yaratish orqali xususiy sektorni «yashil» korxonalarga investitsiya kiritishga yo‘naltirish. Davlat korxonalarini «yashil» iqtisodiyot yetakchilariga aylantirish uchun davlat balansidan foydalanish — «yashil» investitsiyalar hamda barqaror standartlar va sertifikatlash bo‘yicha rejalashtirish, qabul qilish yoki hisobot berishni rag‘batlantirish maqsadida davlat korxonalari ustidan davlat nazorati amaliyotini takomillashtirish[7] zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Investitsiyalar-iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveri”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning uchinchi Toshkent Xalqaro investitsiya forumidagi nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi 2024 yil, 3 may, №86.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoniga 1-ilova.
4. Vaxabov A.V, Xajibakiyev Sh.X. Yashil iqtisodiyot. Darslik. 2-nashr qayta ishlangan va to‘ldirilgan.- T. 2021. -238 b.
5.Jamoliddinovich U. B. FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 01. – C. 149-151.
6. https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/3622/
7.https://bugun.uz/zbekistonda-2027-jilga-borib-11-ta-ies-va-13-ta-ges-ishga-tushiriladi
8. https://lex.uz/docs/6303230

YASHIL IQTISODIY TIKLANISHDA EKOTURIZM IMKONIYATLARI

Yokubjonova Xulkarbonu Yokubovna, PhD
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yashil iqtisodiy rivojlanish va ekoturizm masalalariga to’xtalib o’tiladi. Xususan, O’zbekiston uchun yashil iqtisodiy o’sish va ekoturizmni bir-biriga bog’liqligini o’rganish dolzarbligi kabil masalalar ko’rib o’tiladi.*

Kalit so’zlar: *yashil iqtisodiyot, atrof-muhit, ekoturizm, ekoturizm sanoati, yashil iqtisodiy o’sish.*

Yashil iqtisodiy tiklanish mamlakatlarning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun muhim siyosat hisoblanadi. Covid-19 jahon iqtisodiyotiga koronadan keyingi davrda yashil iqtisodiyotni tiklash shaklida ekologik muammolarga ko'proq e'tibor berish uchun noyob imkoniyatni berdi.

Koronavirusning 2019-yil oxirida paydo bo‘lishi va 2020-yilda global pandemiyaga aylangani xuddi jahon iqtisodiyotiga shunday qattiq iqtisodiy zarba berdiki, dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti inqiroz bosqichiga kirdi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Korona kasalligi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy tanazzul juda chuqur bo'lgan va dunyo Ikkinchi Jahon